

RESPUBLIKAMIZNING BARCHA UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA YANGI O'QUV YILI BOSHLANDI

Yangi o'quv yilining ilk soatida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Islom Abdug'aniyevich Karimovning porloq xotirasiga bag'ishlangan «Xotira darslari» o'tildi. Islom Karimov mustaqil O'zbekiston davlatining asoschisi. U yurtimizni zamonaviy asosda taraqqiy ettirish dasturini, dunyoda «O'zbek modeli» degan nom bilan tan olingan rivojlanish

yo'lini ishlab chiqqan, jahon miqyosida katta obro'-e'tibor qozongan, buyuk davlat va siyosat arbobi sifatida Vatanimiz tarixida o'chmas va yorqin iz qoldirdi. Xalqimiz o'tgan 25 yilda erishgan barcha yutuq va marralarini haqli ravishda aynan Prezident Islom Karimov nomi bilan bog'laydi va shu ulug' insonning beqiyos xizmatlari, deb biladi.



Sh. MAXMADIYEV o'lgan surat

Yangi 2016–2017-o'quv yilida 9692 ta umumta'lim maktablarida 4,7 million nafar o'quvchi ta'lim olishni davom ettiradi. Bu yil 640 ming nafar bola 1-sinfga qadam qo'ydi. Ularning barchasiga «Prezident sovg'asi» sifatida taqdim etish uchun 12 nomdagi o'quv qurollari va o'quvchi sumkasidan iborat sovg'alar tayyorlanib, ta'lim muassasalariga yetkazib berildi.

– Kecha ustozimiz «Xotira darsi»ni o'tdi. Unda yurtimizning Birinchi Prezidenti – Islom Karimovning Vatanimiz ozodligi, tinchligi, taraqqiyoti yo'lida amalga oshirgan buyuk ishlari haqida to'lqinlanib so'zlab berdilar. Ustozimizning so'zlarini tinglagach, biz o'quvchilar kelajakda ular orzu qilgandek, yurtga munosib farzand bo'lishga, a'lo baholarga o'qishga va'da berdik, – deydi poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 59-IDUM 4-«D» sinf o'quvchisi Muslima Muhiddinova.

Joriy o'quv yilida 4-sinf o'quvchilari uchun ham yangidan yaratilgan chet tili darsliklaridan 1,12 million nusxa va o'qituvchilar uchun 21 ming nusxa metodik qo'llanmalar multimediali ilovalari bilan chop etilib, umumta'lim maktablariga yetkazildi.

Ishonamizki, yangi o'quv yilida yurtimizning bilimga chanqoq o'g'il-qizlari ilm-fanning yuksak cho'qqilarini zabt etib, o'zining aql-u zakovati bilan barcha tengdoshlariga o'rnak bo'ladilar.

O'ZBEKISTON – UMUMIY UYIMIZ

Qo'shtepa tumanining Do'rmon qishlog'idagi 10-umumta'lim maktabida o'tkazilgan festival ana shunday nomlandi.

U mehr-oqibat rishtalarini bog'lab, qishloqda baxtiyor umr kechirayotgan o'zbek, tojik, qirg'iz, turk millati va-killarini yagona maqsad ostida birlashtirdi. «Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!» shiori ostida o'tkazilgan ushbu tadbirda millatlararo totuvlik umumbashariy qadriyat ekani, turli millat xalqlarining o'zaro hamjihatligi davlat taraqqiyoti va barqaror tinchlikning kafolati ekani haqida so'z bordi.

Turli millat vakillari hayoti, an'analari aks etgan, o'quvchilarning ijodiy ishlaridan tashkil topgan ko'rgazma yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

Yaqinda tumanimizdagi 6-musiq va san'at maktabida «O'zbekiston – umumiy uyimiz» shiori ostida tadbir bo'lib o'tdi.


Unda sport ustalari, adabiyot ixlosmandlari, jurnalistlar hamda iste'dodli yoshlar ishtirok etdi. Anjuman ishtirokchilari bugungi kunda yurtimizda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar, qulay shart-sharoitlar xususida so'z yuritdilar.

Tadbir davomida savol-javob viktorinasi o'tkazildi. Men unda faol qatnashdim va Xudoyberdi To'xtaboyevning «Besh bolali yigitcha» kitobi bilan taqdirlandim.

Sitora ABDURAHMONOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi
63-umumta'lim maktabi o'quvchisi

INTERNETDAN QANDAY FOYDALANYAPMIZ?

Biz bugun axborot asrida yashayapmiz. Hozirda kimdir radio, kimdir televizor, yana kimdir internet orqali dunyoda va mamlakatimizda ro'y berayotgan voqea va hodisalardan muntazam ravishda xabardor bo'lib boradi. Ayniqsa, keyingi yillarda internetdan foydalanuvchilar safi tobora kengayib bormoqda.



Internet bu poyoni yo'q kenglik. Ammo undagi berilayotgan xabar va yangiliklar to'laqonli o'zini oqlay oladimi? Ma'lumotlarning xolis va haqiqiy ekaniga kim kafolat bera oladi? Afsuski, hech kim. Bugun internet orqali tarqatilayotgan axborotlarning barchasi ham ezgulikka xizmat qilmaydi. Shunday ekan, har birimiz foydalanayotgan ma'lumotlarimizni ogohlik bilan, ma'naviy filtdan o'tkazgan holda qabul qilaylik. Xalqimiz bejizga «Ogohlik – davr talabi», deya ta'kidlamaydi.

Aziz vatandosh, shuni yodda tutingki, har birimiz shu yurtning bir bo'lagi ekanimiz, uning buyuk kelajagi va buguni uchun barchamiz birdek mas'ulimiz!

Nodira ARSLONOVA,
O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi

TINCHLIK BAXT KELTIRAR

Yaqinda 75 yoshli onam: «Meni Qo'qondagi qarindoshlarnikiga mehmonga olib borgan. Yurtimizdagi o'zgarishlarni bir ko'rib kelay», deb qoldilar. Onam yo'l-yo'lakay Ohangaron, Angren shaharlaridagi bunyodkorlik, obodonchilik ishlari, Qamchiq dovonidagi keng, ravon yo'llar qatori Angren-Pop temir yo'li, Qo'qondagi bir-biridan chiroyli binolarni zavq bilan tomosha qildilar. To'ylar ustiga to'ylar qilayotgan hamqishloqlarimiz yuzidagi baxtiyorlikdan ko'ngillari quvonchga to'ldi. «Mevalardan to'yib-to'yib yeng qarindoshlarning bog'laridan», desam, «E, bolam-a, bir burda nonga qornim to'yadi. Tinchligimizga, dasturxonimiz to'kin-sochinligiga shukronalar aytaman», deya uzoq duo qildilar. Safardan kayfiyatlarini chog' qaytgan onam qo'shnilariga va nabiralari taassurotlarini to'qinlanib gapirib berdilar.



ZUBAYDA olgan sur'atlar

Yurtimizdagi tinchlik tufayli har sohada yuksak marralarni qo'lga kiritayapmiz. Iqtisodiyotimiz barqaror sur'atlar bilan taraqqiy etib borayapti. Mamlakatimizning qudrati va iqtisodiy salohiyati tobora ortib, yalpi ichki mahsulotimizning o'sish sur'atlari oxirgi 11 yil davomida jahondagi sanoqli davlatlar qatorida 8 foizdan kam bo'lmasdan kelayapti. Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e'lon qilingan reytingda keyingi 3 yilda iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan davlatlar orasida mamlakatimiz 5-o'rinni egalladi. BMT ko'magida AQSHning Kolumbiya universiteti tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy tadqiqotlar asosida e'lon qilingan «Butunjahon baxt kodeksi»da Vatanimiz 158 ta mamlakat orasida 44-, MDH mamlakatlari orasida 1-o'ringan joy egallaganligi har birimizning qalbimizda iftixor tuyg'ulari jo'sh uradi.

Yon-atrofimizda bo'layotgan voqealarga daxldorlik hissi bilan yashash bugungi kunda eng dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Zero, zamonaviy bilim va

kasb-hunarlarga ega bo'lgan, yangi-cha, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimizning ertangi kuni uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan shunday navqiron o'g'il-qizlarni yana qayerdan, qaysi yurtidan topish mumkin.

O'zbekiston yoshlari iste'dod va mahorat bobida hech kimdan kam emas. Bu jihat XXXI yozgi Olimpiada o'yinlari misolida yana bir karra o'z tasdig'ini topdi.

Bokschilarimiz Kuba, AQSH, Buyuk Britaniya hamda Rossiya kabi boksni rivojlangan davlatlarni ortda qoldirib, dunyoda birinchi pog'onani band etdi. Yoshlarimiz erishayotgan bunday yutuqlarni har bir sohada e'tirof etilayotganligi ertangi kunga bo'lgan ishonchimizni yanada oshiradi.

Zero, tug'ilib o'sgan zamin, ona yurt uchun jonini fido qilishga tayyor, yuksak marralarni zabt etishga qodir hamjihat, jipslashgan xalqimiz bor ekan, ko'zlagan maqsadlarimizga, albatta, erishamiz.

Nodira NAZAROVA

UNUTILMAS SABOQ



Toshkent pedagogika kollejida bo'lib o'tgan «Xotira darsi»da jahon miqosida katta obro'-e'tibor qozongan, buyuk davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning buyuk xizmatlari yodga olindi.



Davlatimiz biz yoshlarga yuksak ishonch bildirgan ekan, bu ishonchni oqlashga bor kuchimizni, bilimimizni sarf qilamiz, deya fikr bildirishdi o'quvchilar.

– Assalomu alaykum, aziz ustoz!
O'quvchilar ustozga salom berib, joylariga o'tirishdi.



Ta'lim maskanida 15 yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Nodira opa Rashidova bolajonlarni 1-sinfga qadam qo'yganliklari bilan qutlab, ta'lim maskanining ichki tartib-qoidalari bilan tanishtirgach, mustaqillik yillarida erishgan g'alabalar, qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz haqida gapirib berdi. Birinchi saboq – «Xotira darsi»da nafaqat o'zbek elining, balki boshqa davlat vakillarining ham e'tirofiga sazovor bo'lgan, jajji qalblarda mehr-muhabbat, vatanparvarlik hissini uyg'otgan Prezidentimiz Islom Karimov boshchiligidagi amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, ularning sa'y-harakatlari tufayli dunyo hamjamiyatida tutgan o'rnimizning tobora yuksalgani, chorak asr davomida bir necha asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirilgani haqida so'z bordi. O'quvchilar Istiqlol haqida she'rlar aytishdi.

Bugun bu jarayonga mamlakatimizning har bir o'quv dargohida guvoh bo'lish mumkin. Barcha maktablarda boshlangan darslar o'quvchilarni bilim olishga, ilm cho'qqilarini zabt etishga chorladi. Jumladan, Saydali aka Hasanov rahbarlik qilayotgan Termiz shahridagi 5-umumta'lim maktabiga ham 2016–2017- o'quv yili uchun 70 nafar 1-sinf o'quvchilari qabul qilindi.

– 1-sinf o'quvchilariga 12 nomdagi o'quv qurollari hamda darsliklardan iborat Prezident

sovg'asi topshirildi. Bundan bolajonlarimiz yanada ruhlanib, o'z navbatida, yaxshi o'qishga, odobli o'quvchi bo'lishga so'z berishdi, – deydi Saydali aka.

«Maktab ta'limini rivojlantirish umumiy davlat dasturi»ga muvofiq mazkur maktab 2006-yil yangidan qurildi. 630 o'ranga mo'ljallangan ta'lim dargohi 2 ta binodan iborat bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun alohida bino ajratilgan. Shuningdek, maktabda yorug' va shinam, barcha qulayliklarga ega bo'lgan sinf xonalari, 12x24 hajmdagi sport zali, 40 o'rinni oshxonasi, tibbiyot xonasi, 1–4-sinflar uchun mo'ljallangan ingliz tili xonasi hamda 2 ta kompyuter xonalari mavjud. 634 nomdagi, 1123 nusxadagi adabiyotlarga ega kutubxona bolajonlar ixtiyorida.

– Menga Prezident sovg'asi berilganida, to'liqlanib ketdim. Ustozimiz bizga Istiqlol tufayli erishgan yutuqlarimiz haqida so'zlab berdilar. Davlatimizning bizga nisbatan g'amxo'rligi, jonkuyarligiga biz ham munosib javob qaytaramiz. Prezident bobom bergan bu sovg'a bir umr esimdan chiqmaydi, – deydi 1-sinf o'quvchisi Parizoda Rashidova.



Biz Termiz shahridagi ushbu maktabda ta'lim-tarbiya olayotgan barcha o'quvchilarga kelajakda Yurtboshimiz istaganlaridek komil inson bo'lib voyaga yetishlariga, yurt ishonchini sidiqidildan oqlashlariga, jonkuyar o'qituvchilarga esa har tomonlama ma'naviyati yuksak avlodni tarbiyalashlarida kuch-quvvat tilaymiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

SIZGA TA'ZIM, AZIZ MUALLIM!

Yurtimizda yaxshi an'ana bor. Eng ulug', eng aziz bayramimiz arafasida Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, ko'p yillik samarali mehnati bilan obro' topgan bir guruh yurtdoshlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Ana shunday halol, sharafti mehnati tufayli e'zoz topganlardan biri «Mehnat shuhrati» ordeni sohibasi Shahnoza opa Qosimovadir.



Ustoz salkam qirq yillik ish tajribasiga ega. Bu yil uning Shayxontohur tumanidagi 20-umumta'lim maktabiga direktor bo'lib kelganiga ham o'n besh yil bo'ldi. O'tgan davr mobaynida u o'zining mehnatsevarligi, tashkilotchilik qobiliyati bilan o'qituvchilar jamoasi va ota-onalar o'rtasida katta hurmat-e'tibor qozondi. Maktab kapital ta'mirdan chiqarilib, fan xonala-

ri zamon talablari asosida qayta jihozlandi, o'quv-tarbiya sohasida ilg'or yutuqlarga erishildi.

– Bu yuksak mukofot nafaqat menga, balki butun pedagogik jamoamiz mehnatining taqdiranishi, deb bilaman, – deydi qulovimizni qabul qilgan suhbatdoshimiz. – Ta'lim maskanimizda 1300 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Yangi 2016–2017-o'quv yilida 1-sinfga

qadam qo'ygan 182 nafar jajji bolajonlar Prezidentimiz sovg'asini olish baxtiga musharraf bo'lishdi.

Ish jarayonida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida o'quvchilarning barcha fanlarni puxta o'zlashtirishiga, tuman, shahar ko'rik-tanlovlarida faol ishtirok etishiga a'lohida e'tibor qaratganmiz. Masalan, o'tgan o'quv yilida fan olimpiadasining tuman bosqichida 9-«V» sinf

o'quvchilaridan Shahlo Akromova biologiya, Kamola Shokirjonova ona tili, Doston Sultonov matematika, Otabek Tohirov iqtisodiy bilim asoslari fanlaridan 1-o'rinni qo'lga kiritib, shahar bosqichiga yo'llanma olishdi. Shuningdek, «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida muvaffaqiyatli qatnashgan tarix fani o'qituvchisi Ixtiyor Salayev shahar bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritib, Respublika bosqichida ishti-

rok etish imkoniyatiga ega bo'ldi...

Maktabdagi jo'shqin hayot, ish faoliyatidagi yangiliklar haqida to'liqlanib gapirayotgan uch nafar farzandning onasi, olti nafar nabiraning mehribon buvijonisi bo'lgan ustozga mehr bilan boqamiz. Xayolimizdan o'tgan «Mehnat insonni ulug'laydi» naqlining naqadar to'g'ri ekaniga yana bir bor amin bo'ldik.

Dilorom HOTAMOVA

OQ SAROYDA ARGAN TONGLAR

Istiqolning nurli quyoshi o'z zarrin nurlarini ona zaminimiz bag'riga birdek taratyapti. Bugun yurtimizning qay bir go'shasida yurmaylik, buning shohidi bo'lamiz.

Kuni kecha Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumani-da «Yurt kelajagi – 2016» iqtidorli yoshlar tanlovining Respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Unda 15 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan 446 nafar iqtidorli o'g'il-qizlar ishtirok etdi. Ularning yuz-ko'zlarida o l a m - o l a m quvonch, qalblarida Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat borligini ilg'adik. Istiqolning sarxil mevalari bo'lgan yoshlarimiz o'zlarining cheksiz dunyoqarashi bilan bizlarni hayratga soldi. Yoshlarimizning turli janrdagi rang-barang ijodiy ishlari zaminida O'zbekistonimizning erangi kuni o'z aksini yaqqol namoyon etardi.

«Lochin» bolalarni sog'lomlashtirish oromgohida bo'lib o'tgan tadbir ijodkor yoshlarimizga zavq bag'ishladi. Ayniqsa, Oqsaroydagi bunyodkorlik ishlari hayratimizni ming chandon oshirdi. Olgan taassurotlarimizni yurakka sig'dirolmay, uni baytlar bilan bezashga chog'landik:



Iztirob joy topmagan pok xonadirsan, Oqsaroy,
Yer yuzida bebaho ostonadirsan, Oqsaroy.

Yashnagan tengsiz chaman poyingda
gul sochgay mudom,
Ezgulik dunyosida afsonadirsan, Oqsaroy.

Oq gilam to'qib kezar tunlar sening yo'lingda oy,
Yurtimizda benazir koshonadirsan, Oqsaroy.

Yam-yashil Kesh shahrida orolanib turgan suluv,
Ishqimizning bog'ida parvonadirsan, Oqsaroy.

Gullagay sog'intirib, Sohibqironning izlari,
Ko'zlarim ummonida durdonadirsan, Oqsaroy.

Baytlarim har bandini guldasta aylay sen uchun,
Ko'ngli tog' Axtamquliga onadirsan, Oqsaroy.

AYTAMQULI

Mustaqillik... Bu so'zning zamirida qanchadan qancha insonlarning mehnati, mashaqqati yotibdi.

MEN KOLLEJ O'QUVCHISIMAN

Quvonarlisi, davlatimiz chorak asr mobaynida ulug'vor yutuqlarga erishdi. Yurtimizda avtomobil zavodlari, turli qo'shma korxonalar bunyod etildi, shahar-u qishloqlar obod bo'ldi. Bularning bari Istiqolimizning bizga bergan ne'matlaridir.

Biz Vatanimizga, buyuk ajdodlarimizga sodiq va munosib farzand bo'lishni istasak, avvalo, mustaqilligimizni asrab-avaylashimiz lozim. Har tomonlama chuqur ilm olib, Vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shuvchi bilimdon va yetuk farzand bo'lib voyaga yetishimiz kerak.



Men bu yil poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabini bitirib, Toshkent Matbaa va noshirlik kasb-hunar kollejiga o'qishga kirdim. Yaqinda kollejimizda bo'lib o'tgan yig'ilishda ham Istiqolimiz yaratgan imkoniyatlar haqida so'z bordi. Men yaqinlarimga o'zim tanlagan kasb yo'nalishi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib, ona Vatanim ishonchini oqlashga so'z berdim.

Odina SAHOBIDDIN qizi, Toshkent Matbaa va noshirlik kasb-hunar kollejining 1-bosqich o'quvchisi

Men bu yilgi yozgi ta'tilni mazmunli o'tkazdim. Kutubxonadan salomatlik va gullar haqidagi kitoblarni olib o'qidim. Qolaversa, ingliz va rus tili to'garaklarida til o'rgandim.

SEVIMLI DARGOH

Menga, ayniqsa, oila a'zolarimiz bilan Xumson tog'iga qilgan sayohatimiz juda manzur bo'ldi. Ana endi yangi o'quv yilini ulkan maqsadlar bilan boshlashga tayyorman.

Bu yil maktabimiz yanada chiroy ochibdi. Sinf xonalarimiz yorug' va shinam. Maktabimiz sport zali, oshxona, kutubxona, algebra, kimyo, geografiya, tarix va



huquq xonalarini qayta ta'mirlanibdi.

Xullas, barcha narsa yangi o'quv yiliga shay holga keltirilgan.

Men barcha tengdoshlarimga a'lo bahoga o'qishlariga tilakdoshman.

Aziza USMONXO'JAYEVA, Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 67-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

USTOZDAN MINNATDORMIZ

Ilk ustozimiz Mohidil opa Hikmatova qalbimizda chuqur iz qoldirgan. Sababi, ular darslarga qiziqishimiz uchun turli ko'rgazmali qurollardan foydalanar, guruhlarga bo'lib, musobaqalar uyushtirar, o'zlarining o'quvchilik damlarini so'zlab berishdan sira ham charchamasdilar.

O'qish darsida biror-bir erak yoki she'r bilan tanishsak, ustozimiz darhol uyga vazifa tariqasida qahramonlarning rasmini chizishni yoki mavzu asosida insho yozib kelishni topshirardilar. Biz bo'lsak, hadeb rasm chizaveramizmi, deb nolirdik. Endi bilsam, o'sha rasm-u insholar o'tilgan mavzuni eslab qolishimiz uchun katta foyda bo'lgan ekan. Barchamiz puxta bilim berganlari uchun Ustozimizdan bir umr minnatdormiz.

Sitora NAPASOVA, Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 12-umumta'lim maktabi o'quvchisi



MENING AZIZ ONAMSAN

Tabiat, sen jonimsan,
Tanda oqqan qonimsan.
Buloqlaring musaffo,
Beg'uborlik dilga jo.

Quyoshing kulib boqar,
Mehri dilga xush yoqar.
Maftunkor bir olamsan,
Mening aziz onamsan.

Durdona BAHROMOVA, poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 223-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

LESSON 103

IMPORTANT RULES

Here are some rules
For you and me,
See how important,
They can be.

Always be honest,
Be kind and fair,
Always be good,
And willing to share.

These are rules,
We all should know,
We follow these rules,
Wherever we go.



Dono AHMEDOVA

MY FIRST BELL
(Mening birinchi qo'ng'irog'im)

Shahnoza KARIMOVA

While Madina was doing her homework at night, suddenly she remembered about her teacher's sentences:

– Mum, after three months we have the last bell at school. We will finish the 4th and up to the 5th. And our teacher also changes. Then my teacher Noila teaches to the 1st form pupils.

A six year old Azizbek who was learning letters asked from his mother:

– What is the last bell? Does the bell never ring in my sister's school? So, are there the first, second, third bells also? Which is the last bell?

Dildora opa began to explain to her son:

– You know, you will go to first form on the second of September this year. That day the first bell will be ring. Your teacher takes into the classroom. Then the lesson begins. In summer you will finish the first form and go to holiday.


– Oh, is my sister's school finished? – again asked Azizbek.

– No, my son, – said Dildora opa. – After the fourth form your teacher follow you to the fifth form. You will have more new teachers.

The last bell rings only for final year pupils. For other pupils it is only calling to summer holiday.

From mother's answer Azizbek was happy and began to wait September and ringing the first bell.

Translated by D. Shakirova



CROSSWORD

Dear children find 12 kinds of sport from the box.


| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| K | C | H | E | S | S | B | B | R | B | F |
| A | H | T | T | R | W | W | O | U | B | O |
| R | O | E | J | J | I | A | X | N | T | O |
| A | C | N | J | U | M | P | I | N | G | T |
| T | K | N | N | D | M | C | N | I | O | B |
| E | E | I | N | O | I | U | G | N | L | A |
| E | Y | S | S | B | N | G | S | G | F | L |
| S | K | I | I | N | G | S | Z | W | D | P |

Dinora BEGDULLAYEVA,
the pupil of lyceum under KSU by Berdaq

WORD GAME

Separate these words to their groups:

Classroom, shelves, librarian, chairs, field, knife, author, information desk, glass, teacher, pot, chemistry lab.



Umida UMAROVA

MY FIRST DAY OF SCHOOL

Write what you felt:

I feel _____

I think _____

I know _____

I am _____

I pretend _____

I worry _____

I try _____

I am _____

I imagine _____

I smile _____

I hope _____

I am _____

Painter: YOQUBBEK

MAKE A WORD

1. Sdke – desk
2. Serera –
3. Gule –
4. Pantl –
5. Rtish –
6. Skrti –
7. Ckabpack –
8. Mocacsing –
9. Ocksc –
10. Ow –



Prepared by DINORA

– Demak, o'g'lim, sen rahmatli To'xtaboy boyvachchaning o'g'li ekansan-da, – shu gaplarni aytib, ko'ksimga musht bilan asta urib qo'ydi.

– To'g'ri, o'sha otamning o'g'liman, – dedim shoshilib.

– Demak, bu noyob kumush lagan katta bobongdan qolgan ekan-da. Tagobda bunaqangi oltinga ega bo'lgan katta boylar yo'q edi. Nari borsa, oti-yu qo'sh ho'kizi bo'lardi. Men Qayvubod qishlog'idan bo'laman. O'sha katta bobolaring qo'lida otboqar bo'lganman. Xo'sh, buni sotmoqchimisiz?

– Sotamiz, – dedik aka-uka.

– Yo'q, eshak kerak, – dedi akam.

Eshakni o'g'irlatib qo'ygani, agar bugun eshak olsak, tuz konidan tuz keltirib sotmoqchi ekanligini aytdi. Cho'loq amaki hamon qovog'ini ochmaydi. Xo'mrayibroq qaraydi. Qiyin, hammaga qiyin. Keyin Xoliq degan bir bolani chaqirib: «Ey ukam, shu noyob narsani sen olgin», degandi. Xoliq degan yigit: «O'zimnikini sotolmayapman-ku», deb qo'ya qoldi. Bir kishi laganni olib, eshagimni beraman degandi, eshagi akamga yoqmadi. Keyin yana bir kishiga tavsiya qildi. Oppoq soqoli qornigacha tushgan bobo kumush laganimizning u yoq-bu yog'ini ag'darib ko'rdi, boshi uzra baland ko'tarib, quyoshga qaradi. So'ng tuyaday keladigan katta eshagini yetaklab keldi. Eshagini yasantiribdi. Og'zida yugan, bo'ynida tumor, minganda yordamlashadigan ikki yonboshida ikki uzangi.

– Xo'sh, eshakni laganga almashtirishga rozimisiz?

– Rozimiz. Ming marta rozimiz.

Biz qo'l siqishib, xayrlashdik. Men uzangiga oyoq qo'yib mindim. Akam orqamga sakradi.

Voy, qishloqqa qaytayotganimizni ko'rsangiz... Aka-uka ikkimiz jannatda bo'ladigan «Buroq» degan uchar ot mingandek sevinib borayapmiz.

Ana shu huzur kechqurun, hatto uxlab qolgunimizga qadar davom etaverdi. Huzur qilaverdik. Eshakni bergan bobo bir xalta holva, yigirmata obinon, bir qadoq go'sht, yog' ham bergan ekan. Xursandchilik kayfiyatimizni shunaqangi ko'tardiki, har zamonda oyijonim labiga chanqovuz qo'yib chalar edi. Chanqovuzning ohangiga Oysha singlim tunuka laganni chalib jo'r bo'ldi. Do'mboqqina Obida singlim pildirab o'yinga tushib ketdi. Bugun, nazarimda, uyimizga Oloah xursandchilik farishtalarini yuborganga o'xshaydi. Qiziq, bu xursandchiliklar nimadan ekanligini o'ylayman-da, ichimdan g'alati ovozlar kelayotganga o'xshaydi.

**Ovqat tushsa qoringa,
Xalil juda zo'r bo'lar.
Qorni ochib qolsa-chi,
Ikki ko'zi ko'r bo'lar.**


**O'yin tushar Obida,
Tabassumi labida.
Shodligi olamga teng,
Goho-goho ghida.**

O'gay otamning uyiga kelganimdan buyon eng katta xursandchilik bugun bo'ldi. Quvonchdan singilchalarim qiyqirishdi. Onajonimning yuzida chiroyli gullar ochilganday bo'ldi. Xayriyat, kelganim yaxshi bo'libdi.

MIRZA BOBO

TEGIRMONIGA BORGANIM

Ertatongdan tegirmonga jo'nadim. Uch kilo bug'doy, uch kilo qo'noq, uch kilo oq jo'xorini aralashtirib, qopga solib, oyijonim yelkamga yuklab berdi.



**TAGOB QISHLOQ
ERTAKLARI**

Tegirmon qaydasan, deya yo'lga tushdim. Donni tortirish uchun Abduxalil borsa ham bo'lardi. Lekin uning yomon odati bor ekan. Uning yarmini ko'mochnon qilib yeb qo'yarkan. Ko'mochnon nimaligini bilasizmi, bilmasangiz, aytay qolay. Mana, tegirmonga yuk ko'tarib bordingiz, navbatda turganlar haddan tashqari ko'p. Ana shu navbatda turganlar kuta-kuta och qolishadi. Shunda ulardan bittasi bir hovuch bug'doy, bittasi arpa, yana bittasi bir hovuch qo'noq beradi-da, tegirmonchi boboning uniga almashtirib oladi. Birov ana shu unni tog'orada qora boshlaydi. Birov qorilgan xamirdan kulcha nonlar yasaydi, birov hovliga chiqib gulduratib olov yoqib yuboradi. Olov so'ngach, haligi kulcha nonlarni kul tagiga bosib, ustiga lovullab turgan cho'g'larni tortsangiz, bir nafasdan so'ng ko'mochnonlar tayyor bo'ladi. Voy, uning mazasi, voy uning chaynaganingizda og'zingizda erib ketishi... Abduxalil ana shu ko'mochnonga o'rganib qolgan ekan. Shuning uchun qopchani ko'tarib, o'zimizning qishlog'imiz tepasidagi Devona bobo tegirmoniga jo'nadim. Endi men sizga tegirmonchi boboning kimligini aytib beray. Mana shu bobo chaqaloqligida cho'loq bo'lib tug'ilgan ekan. Dardmand onasi kasal bolasiga qayg'urib, vafot etgan ekan. Bolakayni uning xolasi katta qilgan ekan. Lekin u xolasining uyida ko'p qolmabdi. Bir amallab tirikchiligim o'tar, deb

gadoychilikka chiqib ketgan ekan. Birovlar ovqat, birovlar 10–15 tiyin pul berarkan. Mirzajon ana shu tangalarni yig'ib, ona-bola qo'y sotib olibdi. Qo'ylari 10 taga yetganda ota-onasidan qolgan hovlini va qo'ylarni sotib, men borayotgan tegirmonni Nishonto'la boydan sotib olgan ekan. Men hozir mana shu tegirmonni mo'ljalab borayapman. Yelkamdagi yuk og'ir bo'lsa ham un qilib borsam, oyijonim xursand bo'ladi, deb tishimni-tishimga qo'yib chidab boryapman.

Tegirmonda navbat kutayotganlar ko'p, birovi ko'tarib kelgan qopchig'iga suyanib, birovi shunchaki bir-biriga yelkadosh bo'lib, yana birlari shunchaki xaltadagi mushtum toshdek donlarini tizzalariga qo'yib o'tirishibdi. Men ham ularning qatoriga qo'shildim. Shu payt navbat kutayotganlar o'rtasida janjal boshlanib qoldi. To'g'ri, Isfara, Bujun, Botgan tomonlardan qop-qop bug'doylar keltirishgan. Ular un qilib tortishadi-da, ertaga Yaypan bozoriga olib borib sotishadi. Ana shu odamlarning qopi hammaning ko'ziga yomon ko'ringan bo'lsa kerak. Ehtimol, janjal shundan chiqqandir.

Bekobodliklar:

– Tegirmon bizniki, uning toshini usta Jo'ra tashib keltirgan, – desa, Kichkina tagobliklar:

– Tegirmon bizniki, suvini Polvon onamiz tog' kesib keltirgan, – deydi.

Tagobliklar esa:

– Tegirmon bizniki. Devona bobo biz uchun sotib olgan, – deydi. Bu gaplar shovqin-suronga qo'shilib rosmana mushtlashuv boshlanib ketdi. Kim-kimni uryapti, bilib bo'lmaydi. Boshqa bir xonadagi gadoylar, cho'loqlar, ba'zan uyida ovqat bo'lmay, Mirzaning ataligidan men ham ichay, deb kelganlar o'rtasida g'ovur-g'uvur boshlangan. Men qaysi tomonga qo'shilishni bilmayman. Orada meni ham kimdir bir-ikki musht urib ketdi. Dovdirab qoldim. Xuddi shu payt:

– Musulmonlar, – degan zalvorli ovoz eshitildi. Qarasam, eshikdan boshida salla, yelkasida xurjun Devona bobo kirib kelyapti.

– Bas qil mushtlashishni. Kim janjalni boshlagan bo'lsa, ko'chaga chiqsin. Navbatni kim buzgan bo'lsa, darhol yo'qolsin, – dedi baland ovozda. Tegirmonchi boboning ovozidan hamma jim bo'lib qoldi.

Keyin bilsak, tegirmon navbatini isfaralik bir pahlavon buzgan ekan. Odamlar ko'plashib uning qoplarini hovliga chiqarib tashlashdi. Tegirmon novidan yana shovullab suv tushib, og'ir tosh aylandi, hammaga hovuch-hovuch oppoq un tusha boshladi. Xudoga shukur, bir necha soatdan keyin menga ham navbat keldi. Salkam bir qopcha unni ko'tarib, uyimizga qarab hovliqib boryapman. Mana endi oyijonimning xursand bo'lganini, ko'zlarining sevinchdan porlaganini, yuzlariga tabassum yugurganini ko'raman.

(Davomi bor)

BETAKRORIMSAN...




Chamanida bulbullarning navosi bor, Tog'larida jannatlarning navosi bor. Farishtalar nazar solgan go'zal diyor, Yagonamsan, betakrorim – O'zbekiston.

Bugun bayram ertasidan ko'ngil to'qdir, Xalqi butun totuvlikda armon yo'qdir. Farzandlari hamisha hur qalbi cho'g'dir, Yagonamsan, betakrorim – O'zbekiston.

Ming aylanib dunyo kezib ko'rsak jahon, Fayzi bo'lak tanho yurtimdir farovon. Topmagaysiz bunday baxtli ona makon, Yagonamsan, betakrorim – O'zbekiston!

**Maftuna ABDUMU'MIN qizi,
Surxondaryo viloyati, Denov tumani**



**SEN
GO'ZALSAN**

Vatan, Vatan,
Vatanjon,
Baxtimga bo'l
Tinch, omon.

Sen go'zalsan –
Bir jahon.
Bo'lsin senga,
Sharaf-shon.

Ulg'aymoqda avlodlar,
Erkin, ozod ham shodon.
Baxtimizga har doim,
Yashnab tur, O'zbekiston!

**Dilnoza MAMATMURODOVA,
Surxondaryo viloyati, Uzun
tumanidagi 24-umumta'lim
maktabining 5-sinf o'quvchisi**

**ONAJONIMSAN,
MAKTAB!**

Biz uchun mehr sochgan,
Bolam, deb to'lib-toshgan.
Ko'ngilga berib ziyo,
Quchog'ini keng ochgan.

Onajonimsan, maktab,
Jonajonimsan, maktab.
Bilimga tashna dilga,
Hur – jahonimsan, maktab.

**Zamira SUNNATOVA,
Jizzax shahridagi 8-umumta'lim
maktabining 8-sinf o'quvchisi**

YURTGA MUNOSIB FARZANDLAR

Mamlakatimiz mustaqilligining 25 yilligi arafasida Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarida Vatanimiz sharafiga munosib himoya qilgan sportchilarimizga pul mukofoti va «Malibu» avtomobillari topshirildi.

Poytaxtimizdagi «Olimpiya shon-shuhrati» muzeyida bo'lib o'tgan chempionlarni taqdirlash marosimida yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yoshlar o'rtasida olimpiada harakatini targ'ib etishdagi faol ishtiroki, Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan XXXI yozgi Olimpiada o'yinlaridagi yuksak sport mahorati va mardligi, xalqaro sport maydonlarida O'zbekistonning nufuzi va obro'-e'tiborini oshirishga qo'shgan katta hissasi uchun sportchilarimiz bir

yo'la to'lanadigan pul mukofoti bilan taqdirlandi. Olimpiya o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritgan, mamlakatimiz sportchilari shijoat va mahoratda, kuch va salohiyatda tengsiz ekanini namoyon qilgan o'zbek boks maktabi vakillaridan 49 kilogrammgacha bo'lgan sportchilar bellashuvida ilk g'alabani qo'lga kiritgan Hasanboy Do'stmatov, 64 kg vaznda Fazliddin G'oyibnazarov, 52 kilogrammgacha bo'lgan charm qo'lqop ustalari orasida mutlaq g'olib bo'lgan Shahobid-

din Zoirov hamda og'ir atletika bahslarida olimpiada rekordini yangilagan Ruslan Nuruddinovlar 200 ming AQSH dollari, o'z vazn toifasida kumush medalga sazovor bo'lgan Bektemir Meliqo'ziyev va Shahram G'iyosov har biri 100 ming AQSH dollari, bronza medalni qo'lga kiritgan yetti nafar sportchilarimizning har biri 75 ming dollari bilan mukofotlandi. Shuningdek, g'olib va sovrindorlarga «Malibu» avtomobili ham topshirildi.

Shukrulla G'ULOM

Yurtimizning iqtidorli yosh o'g'il-qizlari nufuzli xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etib, o'zbek farzandlari hech kimdan kam emasliklarini amalda isbotlashmoqda.

ILHOM O'Z SO'ZINI AYTDI

Kuni kecha Fransiyada erkin, yunon-rum va xotin-qizlar kurashi bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida umidli polvonimiz Ilhom Bahromov kumush medal sovrindori bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu sportchimiz muntazam ravishda xalqaro musobaqalarda ona Vatanimiz sharafiga munosib himoya qilib, ustozlari, yaqinlari ishonchini oqlab kelmoqda. Jumladan, Ilhom bugunga qadar o'tkazilgan o'smirlar

va yoshlar o'rtasida qit'a chempionati va II o'smirlar Olimpiadasi g'olibidir.

E'tiborlisi, 50 kg vaznda gilamga chiqqan yosh polvonimiz jahon chempionatida ham o'zini yo'qotib qo'ymadi. U bellashuvlarda eronlik Sayfulloh Muhsin Najod, AQSH vakili Randon Dryu Miranda va gruziyalik Nugzari Sursumiani mag'lub etib, 2-o'rinni egalladi.

Qolgan sportchilarimizning ishtiroki ham muxlis-u mutaxassislarda katta taassurot qoldirdi.



YANGI O'YINGOH FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Futbol - yurtimizdagi eng ommaviy sport turlaridan biri, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatimizda bolalar sportiga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor natijasida shahar-u qishloqlarimizda yangidan yangi stadionlar barpo etilib, sohaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanayotir. Natijada, farzandlarimiz orasidan ko'plab yosh iqtidor egalari yetishib chiqmoqda.

Yaqinda Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi Zarangari qishlog'ida 4 ming muxlisni o'z bag'riga sig'dira oladigan zamonaviy stadion foydalanishga topshirildi. Ushbu o'yingoh Futbolni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, G'ijduvon tumani hokimligi hamda qator homiy tashkilotlar tomonidan barpo etildi.

Stadion barcha qulayliklarga ega bo'lib, bu yerda muxlislar uchun mustahkam o'rindiqlar, yoritkichlar o'rnatilgan.

— Men qishlog'imizdagi 8-umumta'lim maktabining 6-«A» sinfida a'lo baholarga o'qiyman. Bo'sh vaqtlarimda futbol bilan shug'ullanaman. Qishlog'imizda yangi stadion qurib, bitkazilganidan mamnun bo'ldim. Kelajakda Odil Ahmedov, Sardor Rashidov kabi mohir futbolchi bo'lib, O'zbekiston milliy terma jamoasida to'p surmoqchiman, — deydi Valijon Rahmonov.

Biz bo'lajak futbol yulduzining orzulari ushlishiga tilakdoshmiz.

S.TURSINOV

AN'ANALAR DAVOM ETADI

Braziliyada bo'lib o'tgan XXXI olimpiada o'yinlari o'z nihoyasiga yetgan bo'lsa-da, xalqimiz hamon sportchilarimizning erishgan g'alabalari taassurotlari bilan yashamoqda.



Chempionlarni yetishtirgan ta'lim maskanlari, murabbiylar bilan har qancha faxrlansak, arziydi. Ana shunday ta'lim dargohlaridan biri, dzyudo bo'yicha Olimpiya o'yinlarida bronza medalni qo'lga kiritgan Rishod Sobirov saboq olgan Buxoro viloyatining Olot tumanidagi 7-sport maktab-internatidir.


Sport maktabining malakali murabbiylaridan bo'lgan Ozod To'rayev 1998-yilda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutiga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilindi. Oliyog'ohni tamomlagandan shu kungacha qadar internatda dzyudo murabbiysi bo'lib ishlab kelmoqda. Murabbiy ish faoliyati jarayonida dzyudo va kurash sport turlari bo'yicha ko'plab shogirdlar tayyorladi. Ular orasidan Osiyo, O'zbekiston chempionati va xalqaro turnirlar g'olib va sovrindorlari yetishib chiqqan. Shogirdlaridan Ilhom Farmonov o'tgan yili Bangkok shahrida bo'lib o'tgan 1998–1999-yillarda tug'ilgan yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida dzyudo bo'yicha 90 kg vazn toifasida 3-o'rinni egalladi. Bunyod Rajabboyev esa Navoiy shahrida tashkillashtirilgan 2000–2001-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida dzyudo bo'yicha mamlakat chempionatida 35 kg vazn toifasida 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Bunyod joriy yilning bahor oyida Sirdaryoda o'tkazilgan 2000–2001-yillarda tug'ilgan yoshlar o'rtasida dzyudo bo'yicha Respublika chempionatida 42 kg vazn toifasida 3-o'rinni egalladi. Shuningdek, poytaxtda yoshlar o'rtasida Abror Islomov xotirasiga bag'ishlab dzyudo bo'yicha bo'lib o'tgan O'zbekiston kubogida o'z vazn toifasida 1-o'rinni zabt etdi.

Ozod To'rayev doimiy ravishda Respublika musobaqalari va xalqaro turnirlarda bosh hakam va bosh kotiblik vazifalarini bajarib kelmoqda.

Ulug'bek SAIDOV

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

«MUTOLAA» KROSSVORDI



Bo'yiga: 1. Bosma asarlar chop etish muassasasi. 2. O'zbek mutafakkir shoiri. 3. Hamid Olimjon dostoni «... bilan Baxtiyor». 4. Adabiy janr. 5. So'z ko'rki. 7. Xalq og'zaki ijodi janri. 11. Daniyalik taniqli ertakchi adib.

Yoy bo'yicha: 6. Bolalarning eng sevimli janri. 11. Onalar qo'shig'i. 12. Bilim olishdagi eng birinchi darslik. 13. Ikki misra she'r.

14. Amerikalik yozuvchi, «Tom Soyverning boshidan kechirganlari» asari muallifi.

«Zanjir» holda: 8. Gulxaniy asari. 9. She'riyat janri. 10. Sharq she'riyatiga xos vazn.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

QANOTLI DO'STLARIMIZ

Qushlarga tosh otmanglar!
Uchib yursin bezavol.
Mayli, bizning hovliga
Uya qursin bemaol.


Palaponlarin ko'rib,
Quvnasin ko'zlarimiz.
Qushlar – bizning eng sodiq,
Qanotli do'stlarimiz.

Ko'kdan boqib, bizlarni
Bayram bilan qutlaydi.
Qushlar ham bolalardek,
Tinchlikni ulug'laydi!

Isroil MIRZO

Zebiniso Karimova poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 104-umumta'lim maktabining 7-«G» sinf o'quvchisi. Yaqinda u sinfdoshi Sitora bilan Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan «Aloqachi» oromgohida dam olib qaytdi. U yerda ko'plab do'stlar orttirdi.

KIM KO'P KITOB O'QIYDI?



Zebiniso dugonalari bilan yozgi ta'vil davrida «Kim ko'p kitob o'qiydi?» musobaqasini o'tkazmoqchi bo'lishdi. Shu kunga qadar u Muhammad Yusufning «Xalq bo'l, elim», Anvar Obidjonning she'riy to'plami, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar», Tohir Malikning «Ma'suma» romanlarini o'qib tugatdi. Shuningdek, Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» kitobini to'rt marta o'qishga musharraf bo'ldi.

Yosh kitobxon bo'sh vaqtlarida maktabda tashkil etilgan raqs to'garagiga qatnaydi. Har safar o'rgangan raqs-larini uydagilarga ijro etib beradi. Uning eng kichik tomoshabini ikki yarim yoshli jiyani Abdulboriydir.

Bugun erta tongdan qizaloq yangi nashrdan chiqqan badiiy kitoblar bilan yaqindan tanishish istagida tuman kutubxonasi tomon yo'l oldi. Nima bo'lganda ham, Zebiniso uyiga ikkita kitob bilan qaytishi aniq.

Xurshida SULAYMONOVA

8

5-sentyabr 2016



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV,
Svetlana INOMOVA,
Bahodir GANIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruz JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.
Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 26278
Buyurtma – S 6911

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08